

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

URALOV OZODJON SHARIPJONOVICH

**TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Uralov Ozodjon Sharipjonovich

Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish
metodikasini takomillashtirish..... 3

Уралов Озоджон Шарипжонович

Совершенствование методики развития межкультурной компетенции
студентов. 22

Uralov Ozodjon Sharipjonovich

Improving the methodology for developing students' intercultural
competence..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

URALOV OZODJON SHARIPJONOVICH

**TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped10306 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashirbayev Samixon

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Misirov Sohibjon Abdupattaevich

pedagogika fanlari doktori, professor

Sodiqova Iroda Ilhomjon qizi

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil “___” _____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27 uy. Tel.: (99871) 276 -79-11; faks: (99871) 276-80-86. E-mail: tdpu_kengash@edu.uz

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27 uy. Tel.: (99871) 276 -79-11; faks: (99871) 276-80-86. E-mail: tdpu_kengash@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2026 yil “___” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.A.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

N.M.Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika
fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent

Sh.A.Atadjanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
seminar raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), dotsent

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta'limni xalqaro standartlar asosida tashkil etish, talabalarning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish, didaktik jarayon tuzilmasi, mazmuni va uni amalga oshirishning shart-sharoitlariga ilg'or texnologiyalarni, innovatsion o'qitish modellarini integratsiya qilish bo'yicha ko'pgina loyihalar amaliyotga tatbiq etilmoqda. YUNESKO, Yevropa Ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Amerika universitetlari va kollejlari assotsiasiyasi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarda ta'limning zamonaviy tendensiyalari orqali madaniyatlararo xilma-xillikni tushunish, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish, zaruriy bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlar haqida umumiy tushuncha yaratish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan.¹

Dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalari jumladan Harvard, Cambridge, Oxford, Melbourne, Sorbonne universitetlarida madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy antropologiya, didaktik materiallar va metodlarini ishlab chiqishning nazariy masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Adelaide universiteti, Pekin, Tokiyo, Gollandiya amaliy fanlar universiteti, Milan politexnika universiteti, Manchester, Malmö universitetlarida ta'limni xalqaro kontekstda tashkil etish, ichki xalqarolashuv strategiyalarini takomillashtirish, xalqaro komponentlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, o'quv dasturlariga madaniyatlararo bilim va tushunchalarni integratsiyalash, talabalarni muayyan fanlar darajasida va universitet darajasida aniq bir kompetensiyaga ega bo'lishi bo'yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'limni dunyo tan olgan modellarda tashkil etishga bo'lgan harakatlar yanada samarali amalga oshirilmoqda, yoshlarni xorijga bormasdan mamlakatimizning o'zida xalqaro darajada bilim olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish, xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan va ko'pmadaniyatli muhit talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratildi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "O'quv dasturlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish" ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.² Shu jihatdan, oliy ta'lim muassasalarida takomillashtirilgan xalqaro o'quv dasturlari asosida ta'lim sifatini oshirish va talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantiruvchi metodik tizimni ishlab chiqish mazkur ishning dolzarbligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ UNESCOning "Education 2030 Framework for Action" (2030-yilgacha ta'limni rivojlantirish yo'l xaritasi, SDG 4) dasturi, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>; Yevropa Ittifoqining "European Education Area" (EEA) strategic loyihasi https://education.ec.europa.eu/about-eea/strategic-framework?utm_source=chatgpt.com; OECDning "Future of Education and Skills 2030", <https://www.oecd.org/en/about/projects/future-of-education-and-skills-2030.html>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 -2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

to'g'risida", 2019-yil 8- oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil-29 oktyabr PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-avgustdagi PF-610-son "Ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish masalalariga oid ilmiy izlanishlar mazmuni J.J.Jalolov, G.Mahkamova, Sh.Atadjanova, N.M.Ahmedova, M.H.Gulyamova, I.Sh.Musayeva, Sh.A.Orazimbetov, G.O.Maqsudova, K.J.Risqulova, Z.A.Shirnazarova, N.P.Jakbarova, F.E.Sattarova, F.M.Yusupova tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Oliy ta'lim rivojlanishining qiyosiy tadqiqiga oid masalalar P.Lutfullayev, Sh.Yunusov, A.A.Xo'jaevlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuv, madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq ayrim nazariy va metodik jihatlar V.I.Baydenko, N.V.Krasilnikova, O.B.Yarovikov, A.Y.Pleshakova, Y.N.Nikinova, A.A.Shakirova, A.I. Gazizova, L.V.Yarotskaya, A.A.Belozerova, R.S.Valeeva, I.G.Gerasimova, A.V.Grigoryan, O.A.Obdalova, A.I.Shevchenko, B.K.Maudarbekovalarning ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijiy olimlardan oliy ta'limning xalqarolashuvi doirasida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq nazariy, metodologik hamda didaktik jihatlari J.Knight, H.de Wit, M.Soderqvist, Van der Wende, P.G.Altbach, B.Nilson, J.Huber, B.Leask, W.E. Hamilton, J.Bowden, Ferreira Lopes, L, J.Hudzik, K.Mabin, Z.Wang, D.Deardorff, M.Bennett, M.Fantini, K.A.Ramos, E.K.Barrow, Z.Tong, J.T.Einfaltlar tomonidan o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron- ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 y.y.).

Tadqiqotning maqsadi talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida nofilologik ta‘lim yo‘nalishi talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni tanlangan bo‘lib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat pedagogika instituti 120 nafar, Qo‘qon davlat pedagogika institutidan 115 nafar, O‘zbekiston milliy pedagogika universitetidan 125 nafar tarix ta‘lim yo‘nalishlarining jami 365 nafar talabalarini jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy, metodik, elektron, sun‘iy intellekt manbalarini qiyosiy-tanqidiy tahlil etish, pedagogik tadqiqotlar, me‘yoriy hujjatlarni tahlil qilish, xalqaro tajribani o‘rganish va integratsiyalash, modellashtirish, empirik, kuzatish, so‘rovlar (so‘rovnomalar, intervyular), oliy ta‘lim muassasalaridagi interfaol pedagogik tajribalarni o‘rganish, anketa, suhbat, kuzatish, test, loyihalash, ekspert baholash, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari strategik yondashuvlar asosida o‘quv dasturlarini zamonaviy ta‘lim paradigmasiga moslashtirish, madaniy til birliklarini adekvat talqin qilishga yo‘naltirilgan dekodlash strategiyasi orqali boshqa madaniyatlararo kontekstual ma‘nolarini anglashni ta‘minlash hamda madaniyatlararo muloqotni optimallashtirish asosida aniqlangan;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish modeli xalqaro strategik maqsadlarga qaratilgan mazmuni kognitiv, affektiv va faoliyat komponentlarini makro va mikro darajadagi ta‘lim natijalariga integratsiyalash hamda madaniy inklyuzivlik tamoyilini kognitiv-kommunikativ va integrativ yondashuvlarga sinergetik uyg‘unligi asosida takomillashtirilgan;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi germeneytik tahlil, transpozitsiya, evristik usullarni integratsiyalash, ko‘pmadaniyatli kontekstda divergent va konvergent fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan rolli, harakatli, vositali topshiriqlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda

lingvomadaniy didaktik vositalardan funksional foydalanish asosida takomillashtirilgan;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi kompetensiyalarini rivojlanish vektorini aniqlashga qaratilgan Scaffolding, Information gap va Simulation usullarini qo'llash hamda til va madaniyatni didaktik muhitda integratsiyalashuviga xizmat qiluvchi kognitiv, affektiv va faoliyat mezonlar ko'rsatkichlarini baholash darajalarining muvofiqligi va dinamikligi preferensial foydalanish asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: o'quv dasturlarini xalqaro va madaniyatlararo komponentlar bilan boyitish orqali talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan qo'llanmalar "Learn English through History" yaratilgan; talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan; talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini umumiy va kasbiy kompetensiyalar integratsiyasi asosida rivojlantirishning baholash ko'rsatkichlari va mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari yordamida tasdiqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish masalalariga doir pedagogik va metodik nazariyalarni kengaytiradi hamda mazkur jarayonning mohiyati va mazmuni konseptual darajada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining o'quv dasturlarini xalqarolashtirish modeli asosida tashkil etilishi ilmiy jihatdan asoslanib, kasbiy sohada xorijiy tillarni o'qitish metodikasi fanida ushbu yo'nalishning nazariy asoslari boyitiladi. Shuningdek, integrativ yondashuv, xususan, oliy ta'lim xalqarolashuvi doirasida o'quv dasturlariga xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni integratsiya qilish asosida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning umumiy va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitish metodikasi va ta'lim mazmuni takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda foydalanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etishda, hamda ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim kontekstiga moslashtirish asosida o'quv dasturlarini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin. Taklif etilgan model va metodika asosida o'quv-uslubiy majmualar hamda metodik qo'llanmalarni takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan mezon va ko'rsatkichlar talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini baholashda foydalaniladi. Bundan tashqari, tadqiqot

materiallari o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlashda va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishda amaliy ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari strategik yondashuvlar asosida o'quv dasturlarini zamonaviy ta'lim paradigmasiga moslashtirish, madaniy til birliklarini adekvat talqin qilishga yo'naltirilgan dekodlash strategiyasi orqali boshqa madaniyatlarning kontekstual ma'nolarini anglashni ta'minlash hamda madaniyatlararo muloqotni optimallashtirish asosida aniqlashga oid tavsiyalar "Learn English through History" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'bekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldagi 22-01-130/22-sonli ma'lumotnomasi), natijada talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish modeli xalqaro strategik maqsadlarga qaratilgan mazmuni kognitiv, affektiv va faoliyat komponentlarini makro va mikro darajadagi ta'lim natijalariga integratsiyalash hamda madaniy inklyuzivlik tamoyilini kognitiv-kommunikativ va integrativ yondashuvlarga sinergetik uyg'unligi asosida takomillashtirishga oid takliflar "Learn English through History" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'bekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldagi 22-01-130/22-sonli ma'lumotnomasi), natijada talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning modeli takomillashtirilgan;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi germevistik tahlil, transpozitsiya, evristik usullarni integratsiyalash, ko'pmadaniyatli kontekstda divergent va konvergent fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan rolli, harakatli, vositali topshiriqlar va mashqlar tizimini ishlab chiqish hamda lingvomadaniy didaktik vositalardan funksional foydalanish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Learn English through History" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O'bekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldagi 22-01-130/22-sonli ma'lumotnomasi), natijada talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan;

talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi kompetensiyalarni rivojlanish vektorini aniqlashga qaratilgan Scaffolding, Information gap va Simulation usullarini qo'llash hamda til va madaniyatni didaktik muhitda integratsiyalashuviga xizmat qiluvchi kognitiv, affektiv va faoliyat mezonlar ko'rsatkichlarini baholash darajalarining muvofiqligi va dinamikligi preferensial foydalanish asosida aniqlashga doir takliflar "Learn English through History" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan, (Nizomiy nomidagi O'bekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 04-iyuldagi 22-01-130/22-sonli ma'lumotnomasi), natijada talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro anjumanlarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 10 ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 maqola, 3 respublika va 3 xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan. Ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik muammolari, ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishdagi zamonaviy yondashuvlar, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati bayon qilingan.

Madaniyatlararo kompetensiya deganda, odatda, shaxsning turli madaniyat vakillari bilan o'zaro samarali muloqot qilish, madaniy tafovutlarni tushunish va qadrlash, madaniy o'ziga xosligini saqlagan holda boshqa madaniy kontekstlarga moslasha olish qobiliyati tushuniladi.

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi sharoitida bo'lajak mutaxassislarning xorijiy tillarni bilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarix yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilini bilishi undan umumiy aloqa vositasi sifatida foydalanish, tarixiy manbalarni asl nusxada o'rganish, xorijiy hamkasblari bilan samarali muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, bo'lajak tarixchi mutaxassislarning ingliz tilini o'rganish jarayonida ularning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Pedagogik jihatdan qaralganda, bu muammoning ildizi quyidagi omillar bilan bog'liq:

birinchidan, kasbiy sohaga yo'naltirilgan ingliz tili kurslarining mazmuni madaniyatlar haqidagi bilim va tushunchalarni to'liq aks ettirmaydi;

ikkinchidan, kasbiy sohaga yo'naltirilgan ingliz tili kurslarida madaniyatlararo bilim va ko'nikmalar ta'lim natijasi sifatida qat'iy belgilab qo'yilmagan. Natijada til o'qitish jarayoni lingvistik bilimlarni o'rgatish bilan cheklanib, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-madaniy tajribasini kengaytirish, turli madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni anglash hamda kommunikativ vaziyatlarda mos strategiyalarni tanlay olish qobiliyatini rivojlantirish masalalari e'tibordan chetda qolmoqda.

Mazkur muammoni hal etish uchun jahondagi ilg'or xorijiy tajribalar o'rganib chiqilgan. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish, ya'ni madaniyatlararo kompetensiyalarni "Makro" darajada belgilab "Mikro" darajaga integratsiya qilingan. Shuningdek, ushbu ikki darajadagi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun interfaol metodlar, simulatsion mashqlar va faoliyatga yo'naltirilgan topshiriqlar tanlab olingan.

Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki turli madaniyatlarning ifodachisi sifatida qaraladi. Shu bois, ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kompetensiyalarini ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Madaniyatlararo kompetensiya" atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Deardorff fikriga ko'ra, bu shaxsning o'zining va boshqa madaniyatlarni anglab, samarali muloqot qilishga erishishi yo'lida kechadigan doimiy rivojlanish jarayonidir. Fantini esa uni bilim, munosabat va ko'nikmalarning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladigan qobiliyat sifatida tavsiflaydi. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish zarurati bir qator obyektiv omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, globallashtirish jarayonlari natijasida dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy aloqalar kuchayib, ularning o'zaro bog'liqligi ortib bormoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining nafaqat o'z davlatlarida, balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh bo'lishini taqozo etadi. Ikkinchidan, oliy ta'limning xalqarolashuvi jarayoni ta'lim tizimining xalqaro miqyosda kengayishi, turli millat va madaniyat vakillarini birlashtiruvchi muhitning shakllanishiga olib kelmoqda. Ushbu jarayon ichki va tashqi xalqarolashuv komponentlarini o'z ichiga oladi. Xususan, ichki xalqarolashuv (internationalization at home) talabalarning xorijga chiqmasdan turib, o'z mamlakatida xalqaro va madaniyatlararo kompetensiyalarni egallashiga qaratilgan strategiyalarni anglatadi.

O'quv dasturlarini xalqarolashtirish esa ichki xalqarolashuvning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Leask tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko'ra, o'quv dasturini xalqarolashtirish ta'lim mazmuniga xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni, ta'lim natijalari, baholash vazifalari va o'qitish usullarini integratsiya qilish, shuningdek, o'quv jarayonini tashkiliy qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Uning fikricha, aynan o'quv dasturlarini xalqarolashtirish orqali talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish mumkin.

Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik yondashuvlarning sinergetik uyg'unligini taqozo etadi. Obdalova kognitiv yondashuv doirasida dekodlash strategiyasining ahamiyati alohida ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Dekodlash strategiyasi talabalarning boshqa madaniyatlarga oid til birliklarini (so'z, ibora, matn) va ularning kontekstual ma'nolarini to'g'ri tushunish hamda talqin qilish uchun qo'llaydigan kognitiv va interpretativ usullar majmuidir. Ushbu strategiya orqali talabalar madaniy til birliklarining semantik qatlamlarini, ularning madaniy kontekstdagi ma'nolarini madaniy til birliklarini adekvat talqin qilish imkonini beradi. Kommunikativ yondashuv esa madaniyatlararo muloqotni optimallashtirishga qaratilgan bo'lib, u talabalarga til birliklarini real kommunikativ vaziyatlarda, madaniy kontekstga mos holda qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari globallashtirish va oliy ta'lim xalqarolashuvi jarayonlarining ta'lim tizimiga ta'siri, o'quv dasturlarini xalqarolashtirish konsepsiyasi asosida ta'lim

mazmuniga madaniyatlararo komponentlarni integratsiyalash, kommunikativ, integrativ, kognitiv va kompetensiyaviy yondashuvlarning tahlili hamda O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti va Avstraliyaning Adelaida universiteti o‘quv dasturlarini qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlangan.


Dissertatsiyaning **“Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi mazmuni, modeli va metodikasiga doir masalalar tadqiq etilgan.

Bugungi kunda ingliz tilini bilish nuqtai nazaridan mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar nafaqat lingvistik bilimlarni, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini ham puxta egallashni nazarda tutadi. Ammo talabalarga ingliz tilini o‘rgatish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud: o‘quv dasturlarida madaniyatlararo komponentlarning yetarli darajada aks ettirilmaganligi; ta‘lim natijalarining faqat fan darajasi bilan cheklanib, universitet miqyosidagi umumiy kompetensiyalar bilan integratsiyalanmaganligi; talabalarning real madaniyatlararo muloqot vaziyatlarida til birliklaridan madaniy kontekstga mos foydalana olmasligi; darslarda qo‘llaniladigan topshiriqlar ko‘pincha reproduktiv xarakterda bo‘lib, talabalarni madaniy tahlil va refleksiya yo‘naltirmasligi; madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus metod va topshiriqlar tizimining ishlab chiqilmaganligi va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish, talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish va shu asosda metodikani ishlab chiqishda quyidagi metodik mazmundagi tashkiliy choralarni taklif qilish mumkin.

Talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi mazmuni uch komponent bilim, munosabat va ko‘nikmalarning uyg‘unligini ta‘minlaydigan, amaliyotga yo‘naltirilgan hamda fanlararo integratsiyani hisobga oladigan tizimli didaktik mazmunni o‘z ichiga oladi. Madaniyatlararo bilimlar mazmuni boshqa madaniyatlarning tarixi, urf-odatlar va qadriyatlar, ijtimoiy me‘yorlar va muloqot uslublari, madaniy til birliklarining semantik va lingvomadaniy xususiyatlari kabilarni qamrab oladi. Madaniyatlararo munosabat komponenti tolerantlik va bag‘rikenglik, ochiqlik va qiziqish, empatiya va madaniy sezgirlik kabi fazilatlarni o‘z ichiga olsa, madaniyatlararo ko‘nikmalar verbal va noverbal muloqot usullari, moslashuv strategiyalari, konfliktlarni hal qilish va adaptatsiya qobiliyatlarini qamrab oladi. Metodik mazmunning didaktik asosini o‘quv materiallari tashkil etib, ular mavzular tanlovi, matnlar tanlovi va topshiriqlar turlari bo‘yicha tizimlashtirilgan. Mavzular tanlovida madaniyat va uning tarkibiy qismlari, madaniy tafovutlar, irim-sirimlar, bayramlar va marosimlar, mehmondo‘stlik va etiket, muloqot uslublari, noverbal muloqot, global muammolar va ularning madaniy talqini, madaniyatlararo konfliktlar va ularni hal qilish kabi yo‘nalishlar qamrab olingan. Matnlar tanlovida autentiklik, madaniy xilma-xillik, muammolilik, qiziqarlilik va til darajasiga moslik talablari asos qilib olingan.


Tadqiqot davomida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish modeli takomillashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish modeli

Mazkur model xalqaro strategik maqsadlarga qaratilgan bo‘lib, unda madaniyatlararo kompetensiyaning kognitiv, affektiv va faoliyat komponentlari makro va mikro darajadagi ta‘lim natijalariga integratsiyalashgan. Model kognitiv-kommunikativ va integrativ yondashuvlarning sinergetik uyg‘unligi asosida qurilgan bo‘lib, uning markaziy tamoyili sifatida madaniy inklyuzivlik tamoyili belgilangan. Mazkur tamoyil tushunarlik, faollik, integrativlik, reflektivlik, madaniy sezgirlik va tolerantlik elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Modelning tarkibiy tuzilishi maqsadli, konseptual, tashkiliy-mazmunli, texnologik va natijaviy bloklardan iborat. Maqsadli blokda talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirishning strategik maqsadi va vazifalari belgilangan. Konseptual blok modelning nazariy asosini tashkil etuvchi yondashuvlar kognitiv, kommunikativ, konstruktivistik, shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ yondashuvlar va tamoyillar madaniy inklyuzivlik, tushunarlik, faollik, integrativlik, reflektivlik majmuidan iborat. Tashkiliy-mazmunli blok modelning asosiy qismi bo‘lib, unda madaniyatlararo kompetensiyalar komponentlari makro va mikro darajadagi ta‘lim natijalari bilan integratsiyalashgan. Makro daraja – universitet bitiruvchi atributlari (graduate attributes) bilan ifodalanadi. Tadqiqotda oltita universitet atributi belgilandi: akademik bilim va ko‘nikmalar; tanqidiy fikrlash va tahlil; kommunikatsiya va hamkorlik; professional, shaxsiy va liderlik salohiyati; madaniyatlararo va axloqiy kompetensiya; o‘z-o‘zini anglash va refleksiya. Mikro daraja esa “Kasbiy sohada xorijiy til” fani misolida ishlab chiqilgan sakkizta fan natijalaridan iborat. Xususan, madaniyatlararo va axloqiy kompetensiya atributi fan natijalarining quyidagi bandlari bilan moslashtirilgan: 5-band - “Kasbiy mavzularni ko‘p madaniyatli kontekstda muhokama qila oladi”; 6-band - “Xalqaro akademik muloqotga tayyorlanadi: boshqacha qarashlarni qabul qilish, tushunish, so‘z erkinligi va madaniyatlararo sezgirlikka ega bo‘ladi”. Madaniyatlararo kompetensiyalarni ta‘lim natijasi sifatida belgilanishi mazmuni quyidagi rasmda aks etgan (2-rasm).



2-rasm. Madaniyatlararo kompetensiyalarni ta‘lim natijasi sifatida belgilanishi mazmuni

Texnologik blok modelni amalga oshirishda qo‘llaniladigan metod, vosita va texnologiyalar majmuini o‘z ichiga oladi. Natijaviy blokda esa madaniyatlararo kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan. Kognitiv, affektiv va faoliyat mezonlari asosida yuqori, o‘rta va past darajalar tavsiflangan. Shuningdek, universitet atributlari bilan

integratsiyalashgan baholash mezonlari ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular har bir atributning madaniyatlararo kompetensiya komponentlari bilan bog'liqligini va baholash darajalarini o'z ichiga oladi.

Taklif etilgan model asosida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi takomillashtirildi. Metodikani ishlab chiqishda mavjud usullarni oddiygina qo'llash emas, balki ularni o'zaro integratsiyalashgan holda yangi, tizimli yondashuvni yaratish asosiy vazifa bo'ldi. Shu maqsadda tadqiqot davomida muallif tomonidan integratsiyalashgan metodlar tizimi ishlab chiqildi. Mazkur tizim hermenevtik tahlil, transpozitsiya, evristik usullar hamda divergent va konvergent fikrlashni uyg'unlashtirgan holda, bosqichma-bosqich algoritm asosida ishlab chiqilgan.

Germenevtik tahlil usuli talabalarning autentik matnlardagi madaniy ma'nolarni chuqur anglash, talqin qilish va subyektiv tushuncha hosil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, "Cajamarca 1532: A Cultural Collision" matnida keltirilgan "For the Incas, gold was not money – it was sacred. They called it the sweat of the sun" iborasini talabalar o'z talqiniga ko'ra tahlil qiladilar. Talqin variantlari: Inklar uchun oltin iqtisodiy emas, balki diniy-madaniy qadriyat bo'lgan; "Quyoshning terlari" iborasi orqali ular tabiat va ilohiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalagan; ispanlar esa bu madaniy kodni tushunmay, faqat moddiy boylik sifatida qaragan va hokazo.

Transpozitsiya usuli talabalarning avval egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi, ilgari duch kelinmagan kontekstlarga transfer qilish, ya'ni ularni boshqa madaniy, ijtimoiy yoki funksional vaziyatlarga moslashtirish orqali qo'llashga yo'naltirilgan. Masalan, "Inklar madaniyatida oltin muqaddas hisoblangan. O'zbek xalqining tarixiy-madaniy qadriyatlarida qanday narsalar yoki tushunchalar muqaddas sanaladi? Boshqa madaniyat kontekstida bular qanday tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin?" kabi topshiriqlar beriladi.

Evristik usul talabalarni yangi bilimlarni mustaqil egallash, muammolarni tahlil qilish, savollar berish, o'z farazlarini ilgari surish va ilmiy izlanishga yo'naltiradi. Masalan, "Atahualpa kitobni hech ko'rmagan edi. Uni qulog'iga tutib, gapirmagach, yerga tashladi. Bu harakat ispanlar tomonidan diniy tahqirlash deb talqin qilindi. Tarixda yana qanday sivilizatsiyalar yoki xalqlar o'rtasida shunday madaniy tushunmovchiliklar yuz bergan? Kamida ikkita misol toping (masalan, Normanlar va Angliya, Bobur va Hindiston, arablar va Markaziy Osiyo, mo'g'ullar va Xitoy va hokazo).

Divergent fikrlashni rivojlantirish bir muammo yoki vaziyatga nisbatan bir nechta, turli va ijodiy yechimlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Berilgan topshiriq orqali har bir talaba o'z ijodiy taklifini ishlab chiqadi va asoslaydi.

Konvergent fikrlashni rivojlantirish esa mavjud bilimlar asosida mantiqiy, izchil va yagona yechimga olib keluvchi xulosalar chiqarish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, nima sababdan Atahualpa va Pizarro o'rtasidagi uchrashuv madaniy tushunmovchilik bilan tugadi? Inklar va ispan madaniyatlari o'rtasidagi qanday asosiy tafovutlar bu fojiali oqibatga olib keldi? Matn asosida mantiqiy sabablarni ajratib yozing.

Ushbu usullarning integratsiyasi asosida quyidagi topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan (1-jadval):

Topshiriqlar tizimi

Topshiriq turi	Maqsadi	Misol	Rivojlantiriladigan ko‘nikmalar
Tahliliy topshiriqlar	Madaniy kodlarni aniqlash va tahlil qilish	Matnda Atahualpa uchun oltin “Quyoshning terlari” hisoblangan. Bu ibora qanday madaniy ma’noni anglatadi? Inklar va ispanlarning oltinga munosabatidagi farqni tahlil qiling.	Germenevtik tahlil, konvergent fikrlash
Taqqoslash topshiriqlari	Turli madaniyatlarni solishtirish	Inklar va ispan madaniyatlaridagi diniy qarashlarni taqqoslang. Atahualpaga kitobni tashlashi va ispanlarning buni “diniy tahqirlash” deb hisoblashi ortida qanday madaniy farqlar yotadi?	Transpozitsiya, tahlil
Muammoli topshiriqlar	Madaniyatlararo muammolarni hal qilish	Siz Atahualpa va Pizarro bir-birini tushunishiga, madaniy tushunmovchilikning oldini olish qanday yordam bergan bo‘lardingiz?	Divergent fikrlash, evristik usul
Rolli topshiriqlar	Madaniyatlararo vaziyatlarda muloqot qilish	“Tarixiy uchrashuv” simulatsiyasi: talabalar inklar vakillari, ikkinchi guruh ispan konkistadorlari rolini o‘ynashadi.	Kommunikativ ko‘nikmalar, moslashuvchanlik
Harakatli topshiriqlar	Madaniy xatti-harakatlarni namoyish etish	Inklar va ispan madaniyatlarida hurmat ko‘rsatish, salomlashish va diniy marosimlarni namoyish etuvchi topshiriqlar	Noverbal muloqot, madaniy sezgirlik
Vositali topshiriqlar	Didaktik vositalar bilan ishlash	Venn diagrammasi orqali inklar va ispan madaniyatlarining qadriyatlar tizimini taqqoslang.	Vizual tahlil, taqqoslash
Loyiha topshiriqlari	Mustaqil tadqiqot olib borish	Ushbu to‘qnashuvning sabablari, borishi va oqibatlarini tahlil qiling va taqdimot tayyorlang	Evristik usul, divergent fikrlash
Refleksiv topshiriqlar	O‘z madaniy tajribasini tahlil qilish	Atahualpa va Pizarro misolidan qanday saboq olish mumkin? turli madaniyat vakillari bilan muloqotda qanday qiyinchiliklarga duch kelish mumkin	O‘z-o‘zini baholash, refleksiya

Metodikaning amaliy mexanizmi bosqichma-bosqich algoritm sifatida ishlab chiqilgan bo‘lib, u modelning konseptual asoslari va madaniy inklyuzivlik tamoyiliga

mos keladi. Quyidagi bosqichlardagi misollarda tarix fani bilan ingliz tili integratsiya qilingan.

1-bosqich. Motivatsiya va kontekst yaratish. Lead-in, semantic mapping, scaffolding usullari orqali madaniy xabardorlik va qiziqish uyg'otiladi. "Madaniy to'qnashuv" mavzusida talabalar fikr almashadilar, ikki xil madaniyat vakillari bir-birini tushunmasa, nima yuz berishi mumkin? Tarixdan misollar keltiring. Talabalar so'zlar xaritasi (word map) tuzadilar. So'zlar xaritasi tuziladi: qadriyatlar, e'tiqodlar, til, ramzlar, tushunmovchilik, mojaro.

2-bosqich. Kognitiv-anglash. Inklar va ispanlar uchrashuvi haqidagi matn germeneytik tahlil qilinadi, konvergent fikrlash asosida madaniy ma'nolar anglanadi. Talabalar matnni o'qib, undagi madaniy elementlarni aniqlaydilar: oltinning inklar madaniyatidagi muqaddas ma'nosi, ispanlar uchun uning boylik ramzi ekanligi, kitobga bo'lgan munosabatdagi farq, madaniy tushunmovchilikning fojiali oqibatlarini.

